
NARKOLOGIYA DISPANSERI HISOBIDA TURISH YOKI TURMASLIK TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTNOMANI OLIH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?



Narkologiya dispanseri hisobida turish yoki turmaslik to'g'risidagi ma'lumotnomani olish tartibidan xabardormisiz?

Davlat xizmatini ko'rsatuvchi sub'ekt:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.

Murojaatlar qabul qilinadi:

- Davlat xizmatlari markazi;
- YaIDXP – my.gov.uz orqali.

Xizmatdan foydalanuvchilar:

Jismoniy shaxslar

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: 6 000 so'm (BHMning 2,0 foizi)

Davlat xizmati ko'rsatilishi uchun YaIDXP orqali murojaat etilganda yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmati ko'rsatilishi uchun belgilangan yig'imning 50 foizi miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Arizani ko'rib chiqish muddati –real vaqt rejimida.

Eslatma: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6191-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyundan boshlab davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan aholidan, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan narkologiya dispanseri hisobida turish yoki turmaslik to'g'risidagi ma'lumotnoma talab qilinmaydi.

Mamurjon Rahimjonovich Hayoyev - So'x tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-11 17:45:42